

FOYDALANISH BO'YICHA QO'LLANMA

MUZLATGICH- MUZLATISH KAMERASI

O'ZBEKCHA


Iltilmos, muzlatgichdan foydalanishdan avval ushbu qo'llanma va ehtiyot choralari ni diqqat bilan o'qib chiqing va kelajakda foydalanish uchun uni saqlab qo'ying.

G*-*201S**

G*-*331S**

MUNDARIJA

XAVFSIZLIK TO'G'RISIDAGI MUHIM MA'LUMOTLAR	75
O'RNATISH	81
XUSUSIYATLAR JADVALI	82
ISHLATISH	83
Ishga tushirish	
Harorat regulyatori	
Muz tayyorlash	
Muzdan tushirish	
TAOMNI SAQLASH BO'YICHA TAVSIYALAR	84
TOZALASH	86
UMUMIY MA'LUMOTLAR	87
LAMPOCHKANI ALMASHTIRISH	87
MUHIM OGOHLANTIRISHLAR	88
XIZMAT KO'RSATISH MARKAIZGA QO'NG'IROQ QILISHDAN AVVAL	89
YERGA ULASH QURILMASI (IXTIYORIY)	90



XAVFSIZLIK TO'G'RISIDAGI MUHIM MA'LUMOTLAR

ASOSIY EHTIYOT CHORALARI

Ushbu yo'riqnomada xavfsizlik bo'yicha muhim xabarlar beriladi. Barcha xavfsizlik xabarlarini o'qib chiqing va ularga amal qiling.



Bu xavfsizlik to'g'risida ogohlantirish belgisi. U sizni yoki boshqalarni jarohatlashi yoki mahsulotni shikastlashi mumkin bo'lgan xatarlar to'g'risida ogohlantiradi. Barcha xavfsizlik xabarlaridan avval xavfni bildiruvchi belgi va xavfni bildiruvchi OGOHLANTIRISH yoki DIQQAT signal so'zlari keladi. Bu so'zlar quyidagi ma'nolarni bildiradi:



OGOHLANTIRISH

Ko'rsatmalarga amal qilmaslik o'limga yoki jiddiy jarohatlanishga olib kelishi mumkin.



DIQQAT

Agar oldini olinmasa, yengil yoki o'rtacha jarohatlanishga yoki mahsulotning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatni ko'rsatadi.

Barcha xavfsizlik xabarlarini xatarlarni ko'rsatadi, jarohatlanish xavfini qanday kamaytirish mumkinligi va ko'rsatmalarga amal qilinmagan hollarda nimalar bo'lishi mumkinligini aytib beradi.



OGOHLANTIRISH


Qurilmadan foydalanganda yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki shaxslarning jarohatlanishi xavfini oldini uchun ehtiyot choralarga, jumladan quyidagilarga amal qilish lozim.

Ushbu qurilmadan foydalanishdan avval barcha ko'rsatmalarni o'qib chiqing.

1. Elektr tarmog'iga ulaganda

Ko'p rozetkalardan foydalanmang.

- Bitta rozetkaga bir nechta qurilmani ulash yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.




- Oqib ketishlardan elektr himoya taomni shikastlashi va dozator oqib ketishi mumkin.

O'rnatish vaqtida elektr tarmog'iga ulash kabeli rozetkaga tiqilgan bo'lsa, muzlatgichni surilgan vaqtda elektr tarmog'iga ulash kabelining bosilishi yoki buklanishiga yo'l qo'ymang.

U yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

Elektr tarmog'iga ulash kabeli vilkasining yuqoriga qarab turishi yoki muzlatgich orqa paneliga qisilib qolishiga yo'l qo'ymang.

Suvning oqib kirishi yoki elektr tarmog'iga ulash kabelining shikastlanishi yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Elektr tarmog'iga ulash kabelining bukilishi yoki og'ir ob'ektlar tomonidan bosib qolinishiga yo'l qo'ymang.

Bu elektr tarmog'iga ulash kabelining shikastlanishiga va yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



XAVFSIZLIK TO'G'RIDAGI MUHIM MA'LUMOTLAR

1. Elektr tarmog'iga ulaganda


Muzlatgichni tozalagan, texnik xizmat ko'rsatgan yoki ichki lampasini almashtirgan vaqtda elektr tarmog'iga ulash kabelini rozetkadan uzib qo'yning.

- Bu elektr toki urishi yoki jarohatlanishga olib kelishi mumkin.
- Muzlatgich ichki lampasini almashtirgan vaqtda elektr uchquni chiqishini oldini oluvchi rezina halqaning olinib ketmaganligiga ishonch hosil qiling.




Elektr tarmog'iga ulash kabeli vilkasidan suv yoki changlarni olib tashlang va uni rozetkaga mustahkam ravishda tiqing.

Chang, suv yoki mustahkam ulamaslik yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Elektr tarmog'iga ulash kabeli yoki vilka shikastlangan bo'lsa yoki rozetka bo'shab qolgan bo'lsa, kabelni rozetkaga ulamang.

Bu elektr toki urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan qisqa tutashuvga sabab bo'lishi mumkin.



2. Muzlatgichdan foydalanganda


Muzlatgich ustiga og'ir jismlar yoki xavfli narsalarni (suyuqlik to'ldirilgan konteyner) qo'ymang.

Eshik ochilganda yoki yopilganda u tushib ketishi va bu jarohatlanish, yong'in chiqishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.




Shnurni tortmang yoki elektr tarmog'iga ulash kabeli vilkasiga ho'l qo'llaringiz bilan tegmang.

Bu elektr toki urishi yoki jarohatlanishga olib kelishi mumkin.



Yerga ulanganligiga ishonch hosil qiling.

Noto'g'ri yerga ulash buzilishga yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Eshik yoki uning polkalariga yoki muzlatish kamerasi yoki sovutish kamerasi eshiklariga osilmang.

Bu muzlatgichning yiqilishi yoki qo'llaringizning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa bolalarni muzlatgich ustiga chiqishlariga yo'l qo'ymang.



XAVFSIZLIK TO'G'RIDAGI MUHIM MA'LUMOTLAR

2. Muzlatgichdan foydalanganda


Muzlatgichni nam joylarga yoki suv va yomg'ir o'tishi mumkin bo'lgan joylarga o'rnatmang.

Elektr qismlari izolyatsiyalarining yemirilishi elektr tokining oqib ketishiga olib kelishi mumkin.




Muzlatgich ichiga yoki yaqiniga benzin, spirt, suvultirilgan gaz, pardoziy buyumlari kabi yonuvchan narsalarni joylashtirmang.

Bu portlash yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.




Muzlatgichdagi hidlarni yo'qotish uchun shamdan foydalanmang.

Bu portlash yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.




Muzlatgichda dorilar yoki ilmiy tajribaviy materiallarni saqlamang.

Qat'iy haroratda saqlanishi kerak bo'lgan buyumlar qo'yilganda u buzilishi yoki xatarlar hosil qilgan holda kutilmagan tarzda reaksiyaga kirishishi mumkin.




Muzlatgich yaqiniga yonuvchan narsalarni joylashtirmang.

Bu yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



Isitish qurilmalari yaqiniga joylashtirmang.

Bu yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.




Muzlatgich ustiga vaza, pilyola, idish, pardoziy buyumlari, dorilar yoki ichida suvi bo'lgan hech qanday idishlarni qo'ymang.

Bu yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki yiqilishi natijasida jarohatlanishga olib kelishi mumkin.



Suv toshib ketgan muzlatgichdan foydalanmang, texnik tomonidan tekshiriting.


Bu elektr toki urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



XAVFSIZLIK TO'G'RIDAGI MUHIM MA'LUMOTLAR


Muzlatgich ichiga yoki tashqarisiga suv sepmang yoki uni benzin yoki erituvchilar bilan tozalamang.

Elektr qismlaridagi izolyatsiyalarning yemirilishi elektr toki urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.




Muzlatgichdan g'alati hid yoki tutun chiqqan hollarda darhol muzlatgich vilkasini rozetkadan uzing va xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

Bu yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.




Malakali muhandisidan boshqa shaxslarga muzlatgichni qismlarga ajratish, ta'mirlash yoki o'zgartirishlariga ruxsat bermang.

Bu jarohatlanish, elektr toki urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



Muzlatgichdan maishiy maqsadlardan boshqa maqsadlarda foydalanmang (dorilar yoki tajriba o'tkazish materiallarini saqlash, kemada foydalanish kabi).

Bu yong'in chiqishi, elektr toki urishi, saqlanayotgan mahsulotlarning buzilishi yoki kimyoviy reaksiya kabi kutilmagan xatarlarga olib kelishi mumkin.




Muzlatgichni joylashtirganda eshikdan qadoqlash materiallarini olib tashlang.

Bu bolalarning tiqilib qolishiga olib kelishi mumkin.



Muzlatgichni qattiq va tekis yuzalarga o'rnatang.

Turg'un bo'lmagan yuzalarga o'rnatish eshikni ochish yoki yopish vaqtida muzlatgichning yiqilishi natijasida o'limga olib kelishi mumkin.




XAVFSIZLIK TO'G'RIDAGI MUHIM MA'LUMOTLAR

2. Muzlatgichdan foydalanganda


Havo chiqish tirqishlari, qopqoq, muzlatgichning tagiga, orqa tarafidagi issiqqa chidamli grilga (chiqarish teshigi) qo'llaringiz yoki metall buyumlarni tiqmang.

Bu elektr toki urishi yoki jarohatlanishga olib kelishi mumkin.



Muzlatgichni chiqitga chiqarish uchun mahalliy chiqindilarni to'plash xizmatiga murojaat qiling.

Elektr jihozlari yoki mebel singari katta maishiy buyumlarni chiqitga chiqarishda mahalliy chiqindilarni to'plash xizmatiga murojaat qilganingiz ma'qul.




⚠️ DIQQAT

Ushbu ko'rsatmaga amal qilmaslik jarohatlanish yoki uy hamda mebelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Iltimos, doimo ehtiyotkor bo'ling.

Muzlatish kamerasidagi taomlar yoki konteynerlarga nam qo'llaringiz bilan tegmang.

Bu sovuq urishiga olib kelishi mumkin.



Elektr tarmog'iga ulash kabeli vilkasini uzishga 5 daqiqa yoki ko'proq vaqt kuting.

Bu muzlatish kamerasi ishlashida xatoliklarga olib kelishi mumkin.



Muzlatish kamerasiga shisha butilkalarni qo'ymang.

Uning ichidagilarning muzlashi shisha butilkaning sinishi va natijada jarohatlanishga olib kelishi mumkin.



Elektr tarmog'ida uzganda shnurdan tortmang, balki vilkadan ushlagan holda sug'uring.

Bu elektr toki urishi yoki qisqa tutashuv natijasida yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.




XAVFSIZLIK TO'G'RISIDAGI MUHIM MA'LUMOTLAR

DIQQAT

Ushbu ko'rsatmaga amal qilmaslik jarohatlanish yoki uy hamda mebelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Iltimos, doimo ehtiyotkor bo'ling.


Muzlatgichni olddan pastdagi va yuqoridan orqa tarafdagi qo'lda ko'tarish moslamalaridan ushlagan holda ko'taring.

Aks holda qo'llaringizdan sirpanib ketishi va sizni jarohatlashi mumkin. Mahsulot og'ir bo'lganligi uchun uni yolg'iz ko'tarish odamlarga shikast yetkazishi yoki halokatlar yuz berishi mumkin.




Muzlatgich eshigining ochilishi yoki yopilishi atrofdagi shaxslarni jarohatlashi mumkinligi uchun ehtiyot bo'ling.

Muzlatgich eshigining ochilishi yoki yopilishi vaqtida qo'llar yoki oyoqlar qisilib qolishi yoki eshik burchaklariga urilgan holda bolalar jarohatlanishlari mumkin.



Muzlatgichga tirik hayvonlarni solmang.

U hayvonni o'lishiga olib kelishi mumkin.



Muzlatgichga yonuvchan yonilg'ilar bilan to'ldirilgan aerosol ballonlar kabi portlovchan narsalarni joylashtirmang.

Muzlatgich ostiga qo'llaringizni tiqmang.

Muzlatgich tagidagi temir plastinka jarohatlanishga olib kelishi mumkin.



USHBU MUZLATGICH JUDA PUXTALIK BILAN ISHLAB CHIQRILGAN VA SO'NGGI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANADI.

BIZ UNING ISHLASHI VA ISHONCHLILIGIDAN TO'LIQ QANOATLANISHINGIZGA ISHONAMIZ.

MUZLATGICHNI ISHGA TUSHIRISHDAN AVVAL USHBU QO'LLANMANI DIQQAT BILAN O'QIB CHIHING.

UNDA O'R NATISH, ISHLATISH VA TEXNIK KO'RSATISH TO'G'RISIDAGI ANIQ KO'RSATMALAR HAMDA AYRIM FOYDALI MASLAHATLAR BERILADI.

O'R NATISH

1. Yaxshi joyni tanlang

Qurilmangiz uchun undan foydalanish oson bo'ladigan joyni tanlang.

2. Qurilmani issiqlik manbalari yonida, to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ostida yoki nam joylarga o'rnatmang.

3. Muzlatgich atrofida yetarli darajada havo almashishiga ishonch hosil qilish uchun hamma tomonlarida hamda yuqorida yetarlicha bo'sh joy bo'lishini ta'minlang va orqa devor bilan orasida kamida 2 dyuym (5 sm) masofa qoldiring.

4. Tebranishlarning oldini olish uchun muzlatgich tekis o'rnatilishi kerak. Zarur hollarda polning notekisligini qoplash uchun tekislash vintlarini sozlang. Eshikning ochilishiga yordam berishi uchun old tomon orqaga qaraganda biroz baland bo'lishi lozim. Kabinetni bir oz og'dirish orqali tekislash vintlarni osongina burash mumkin. Qurilmani ko'tarish uchun tekislash vintlarni soat strelkasi yo'nalishida(), pasaytirish uchun soat strelkasiga qarama-qarshi() yo'nalishda aylantiring.

5. Bu muzlatgichni harorati 5°C dan past bo'lgan joylarga o'rnatmang. Bu muzlatgichning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

6. Tayanch asosdan foydalanganda mahsulotning yaxshi o'rnatish uchun muzlatgichni tekis/yassi polga joylashtiring. Sovutgich to'g'ri turishi uchun tekis/yassi joy kerak.

KEYINGISI


1. Muzlatgichni tozalang va tashish vaqtida to'plangan changlarni artib tashlang.

2. Muz kublari qutisi, bug'lantiruvchi patnir qopqog'l kabi yordamchi jihozlarni o'zlarining joyiga o'rnatang. Ular tashish vaqtida shikastlanishlarning oldini olish uchun birgalikda qadoqlangan.

3. Elektr tarmog'iga ulash kabeli vilkasini rozetkaga ulang (yoki tiqing). Muzlatgich ulangan rozetkaga boshqa qurilmalarni ulamang.

4. Taomlarni solishdan avval muzlatgichingini 2 yoki 3 soat qoldiring. To'g'ri sovutilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun muzlatish kamerasi bo'lmasidagi havo oqimini tekshiring. Endi muzlatgich foydalanish uchun tayyor.

XUSUSIYATLAR JADVALI



IZOH

- Ushbu yo'riqnoma bir nechta modellar uchun mo'ljallangan. Siz xarid qilgan muzlatgich yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarning ayrimlari yoki barchasiga ega bo'lishi mumkin.
- Savatchalar, surilma qutilar va polkalar singari ishlab chiqaruvchi tomonidan ta'minlangan ichki qismlarni o'z joyida saqlash quvvatlarni tejashning eng samarali usulidir.

QUVVATLARNI TEJASH BO'YICHA TAVSIYALAR

- Ilтимos, eshiklarni uzoq vaqt ochib turmang, eshiklarni iloji boricha qisqa vaqtda yoping.
- Xaddan tashqari ko'p taomlarni qo'yish tavsiya qilinmaydi. Havo erkin aylanishi uchun yetarlicha joy bo'lishi kerak.
- Muzlatgich haroratini keragidan pastroqqa o'rnatmang. Harorat datchigi yaqiniga toam qo'ymang.
- Taomni joylashtirishdan avval sovutuv. Issiq taomni joylashtirish boshqa taomlarning buzilishiga va ko'proq energiya sarflanishiga olib keladi.
- Havo almashish tirqishlarini mahsulotlar bilan to'sib qo'yang. Erkin havo aylanishi muzlatgich haroratini bir xilda saqlaydi.
- Eshikchani tez-tez ochmang. Eshikchani ochish muzlatgichga iliq havoning kirishi va haroratining ko'tarilishiga olib keladi.


ISHLATISH

ISHGA TUSHIRISH

Il'timos, dastlabki ishlatish uchun 1-holatga buring. Ishlatish haroratini barqarorlashtirish uchun muzlatgichningizni 2-3 soat yuklanmagan holda ishlating.

Agar u uzilib qolsa, 5 daqiqa to'xtatib turgandan keyin uni qaytadan ishga tushiring.

HARORAT REGULYATORI



Temperature Control

Muzlatgichingiz shaxsiy talablarga javob berish uchun issiqlikni boshqarishning to'rtta opsiyasiga ega.


Dastlab o'rta (SOVUQROQ) holatga burang, agar sovuqroq haroratni xohlasangiz, soat strelkasi yo'nalishida va iliqroq haroratga o'rnatish uchun soat strelkasiga qarshi yo'nalishda burang.

MUZ TAYYORLASH

- Muz kubikchalar tayyorlash uchun muz kubikchalar patnisini chekkasidan biroz pastroq qilib suvga to'ldiring va uni muzlatgich kameraga qo'ying.
- Harorat regulyatorini **ENG SOVUQ (COLDEST)** holatga o'rnatish va quvvatni tejashni yakunlagach **SOVUQROQ (COLDER)** holatga qaytaring.
- Muz kubchalarini olib tashlash uchun muz patnisini uchlaridan ushlang va asta buking.


MASLAHAT

- Muz kubchalarini osongina olib tashlash uchun bukishdan avval patnisga suv quyung.



MUZDAN TUSHIRISH

- Samarali ishlashiga ishonch hosil qilish uchun muzlatgichingizni muntazam ravishda muzdan tushirib turish lozim. Bug'latgich yuzasidagi muz qalinligi muzdan tushirishdan avval 6 mm dan oshmasligi kerak.
- Muzdan tushirish uchun muzdan tushirish tugmasini (**yashil tugmani**) bosing.
- Muzdan tushirishni boshlashdan avval bug'latgichdan taomlarni olib qo'ying.
- Muzdan tushirish yakunlangach muzdan tushirish tugmasi avtomatik ravishda oddiy holatga qaytadi. Tomchilar patnisini oling, suvni to'kib tashlang va yana qayta joyiga qo'ying.



Defrost Button

TAOMNI SAQLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

TAOMNI SAQLASH

- Yangi taomlarni sovutish kamerasida saqlang. Taomlarning qay tarzda muzlatilishi va muzdan tushirilishi ularning yangiligini va mazasini saqlashda muhim omil hisoblanadi.
- Banan va qovun singari past haroratlarda osongina buziladigan taomlarni muzlatgichda saqlamang.
- Issiq taomlarni avval sovuting. Issiq taomlarni joylashtirish boshqa taomlarni buzilishi va quvvatlardan ko'p foydalanilishiga olib kelishi mumkin!
- Taomlarni muzlatgichga qo'yayotganda ularni vinil qadoqqa o'rang yoki qopqoqli konteynerga soling. Bu namning chiqib ketishini oldini oladi va taomning mazasi va foydali moddalarini saqlanishiga yordam beradi.
- Havo almashish tirqishlarini mahsulotlar bilan to'sib qo'ymang. Erkin havo aylanishi muzlatgich haroratini bir xilda saqlaydi.
- Eshikchani tez-tez ochmang. Eshikchani ochish muzlatgichga iliq havoning kirishi va haroratining ko'tarilishiga olib keladi.

MUZLATISH KAMERASI BO'LMASI

- Shisha butilkalarni muzlatish kamerasiga solmang – ular muzlagan vaqtda yorilib ketishlari mumkin.
- Eritilgan taomlarni qaytadan muzlatmang. Bu mazasining va foydali moddalarining yo'qolishiga sabab bo'ladi.
- Muzqaymoq singari muzlatilgan taomlarni saqlaganda ularni eshik polkasiga emas, balki muzlatish kamerasi polkasiga joylashtiring.

SOVUTGICH BO'LMASI

- Nam taomlarni muzlatgichning yuqori polkasiga joylashtirmang, ular sovuq havo bilan bevosita to'qnashish tufayli muzlab qolishlari mumkin. Buni oldini olish uchun taomni qopqoqli konteynerda joylashtiring.
- Taomlarni muzlatgichga qo'yishdan avval doimo tozalang. Sabzavotlar va mevalar yuvilishi va artilishi kerak, qadoqlangan taomlar yonidagi taomlarni buzmasligi uchun artilishi kerak.
- Tuxumlarni saqlash polkasi yoki qutisida saqlagan vaqtda ularning yangiligiga ishonch hosil qiling va doimo ularni tepaga qaratgan holda joylashtiring, bu ularni uzoqroq saqlanishiga yordam beradi.

TAOMNI SAQLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

Quyidagi jadvalda muzlatgichda taomlarni yaxshi saqlash bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan. Biroq saqlash vaqti natijasida taomning "yangiligiga" ta'sir ko'rsatiladi.

YANGI TAOM	KO'RSATMA	SAQLASH VAQTI
• Yangi go'sht	Bog'lovchi elementni tozalang va qoyib yuboring.	4-5 kun
• Qiyma	Bog'lovchi elementni qoyib yuboring.	1-2 kun
• Dudlangan go'sht	Asl qadoqda saqlang.	1-2 hafta
• Yangi baliq	Alyumin folga yoki plastik plenka bilan mahkam o'rang.	1-2 kun
• Pishirilgan baliq	Mahkam o'rang.	3-4 kun
• Tovuq	Korpus bo'shlig'ini tozalang va bog'lagichni zichlang.	2 kun
• Tuxum	Foydalanishdan avval uni tozalang.	2 weeks
• Sut va qaymoq	Asl qadoqda saqlang.	3-7 kun
• Pishloq (Qattiq)	Alyumin folga yoki plastik plenka bilan mahkam o'rang.	1 oy
• Pishloq (Yumshoq)	Konteyner bilan saqlang.	4-7 kun
• Meva va sabzavotlar	Mahkam saqlang.	3-4 kun

TOZALASH

Noxush hidlarning paydo bo'lishini oldini olish uchun muzlatgichingizni toza tutish juda muhimdir. To'kilgan taomlarni darhol artib tashlash zarur, chunki u oksidlanishi va plastik yuzalarni dog'lantirishi mumkin.

Hech qachon yuzalarni tozalash uchun metall chiyotkalar, dag'al tozalovchilardan yoki kuchli ishqorli eritmalardan foydalanmang.

Biroq tozalashdan avval nam narsalarning o'ta sovuq yuzalarga yopishib qolishini yodda tuting. Muzlagan yuzalarga nam yoki ho'l qo'llaringiz bilan tegmang.

TASHQI QISMI - Muzlatgichni tozalash uchun yumshoq sovun yoki tozalash vositasining iliq eritmasidan foydalaning. Toza nam latta bilan tozalang va keyin quriting.

Tashqi tomonlari zanglamaydigan po'latdan yasalgan mahsulotlarni tozalash uchun toza gubka yoki yumshoq latta va iliq suvga eritilgan yumshoq yuvish vositasidan foydalaning. Abraziv yoki dag'al tozalovchilardan foydalanmang. Yumshoq latta bilan yaxshilab arting. Zanglamaydigan po'lat uchun xorli mahsulotlardan foydalanmang.

ICHKI KAMERA - Ichki kamera va ichki qismlarni muntazam ravishda tozalab borish tavsiya qilinadi. Muzlatgichni tozalash uchun yumshoq sovun yoki tozalash vositasining iliq eritmasidan foydalaning. Toza nam latta bilan tozalang va keyin quriting.

ICHKI QISMLAR - Bo'lma polkalari, eshik zichlagichlari, saqlash patnisilari kabilarni yuving. Muzlatgichingizni uzoq vaqt toza saqlash uchun iliq sovunli eritma yoki idish yuvish eritmasidan foydalaning. Toza nam latta bilan tozalang va keyin quriting.

OGOHLANTIRISH

Elektr jihozlar (lampalar, vklyuchatellar kabi) tozalashdan avval elektr tarmog'iga ulash kabelini rozetkadan uzib qo'yning.

Suv yoki suyuqlikning elektr qismlar ichiga kirishi va elektr toki urishiga sabab bo'lishini oldini olish uchun ortiqcha namlarni gubka yoki latta bilan artib tashlang. Yonuvchan yoki zaharli tozalash suyuqliklaridan foydalanmang.

- Tozalash bo'yicha ogohlantirish: Yuzalarga faol ta'sir qiluvchi vositalar, avtomobil mumi, karroziyalashga qarshi vositalar, barcha turdagi yog'lar, kislotalar, mumdan foydalanmang.
- Sabzavotlar surilma qutisini idish yuvadigan eritmalar, sovunli eritmalar bilan yuving.
- Ehtiyotsizlik bilan yuvilganda ranglar o'chishi mumkin.

UMUMIY MA'LUMOTLAR

MUZLATISH KAMERASI ESHIGIDAGI MUZLAR

Muzlatish kamerasing eshigida qalin muz qatlaminig hosil bo'lishi oddiy hol hisoblanadi.

TA'TIL VAQTI

O'rtacha uzoqlikdagi ta'til vaqtlarida muzlatgichni ishlayotgan holda qoldirigan ma'qulroq. Muzlatiladigan narsalarni uzoqroq saqlanishi uchun muzlatish kamerasiga joylashtiring. Muzlatgichni uzoq muddat davomida ishlatmoqchi bo'lmasangiz, barcha mahsulotlarni olib qo'ying, elektr tarmog'iga ulash shnurini rozetkadan uzing, muzlatgich ichini yaxshilab tozalang va hidlarni ketkazish uchun barcha eshiklarni ochiq qoldiring.

ELEKTR QUVVATINING UZLISHI

Bir yoki ikki soat ichida bartaraf etiladigan uzilishlar muzlatgichdagi harorat ko'rsatkichlariga ta'sir qilmaydi. Lekin elektr quvvati yo'q payti eshik ochilib-yopilishlarini kamaytirishingiz kerak bo'ladi. Uzoqroq vaqt davomida elektr toki uzilgan vaqtlarda muzlatilgan mahsulotlaringiz qadoqlari ustiga quruq muz bo'laklarini qo'ying.

Ushbu qurilma uy sharoitlarida hamda shunga o'xshash quyidagi sharoitlarda foydalanish uchun mo'ljallangan:

- Magazin, ofis va boshqa ishxonalardagi xodimlar oshxonasi.
- Fermalarda va mehmonxona, motellarda mijozlar tomonidan va boshqa turar-joy binolarida.
- Krovat va nonushta turidagi muhitlarda.
- Umumiy ovqatlanish va notijoriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan.

AGAR SIZ HARAKATLANSANGIZ

Muzlatgich ichidagi barcha bo'sh narsalarni olib qo'ying yoki mahkamlang.

Balandlikni o'zgartirish vintlarini shikastlashni oldini olish uchun ularni asosga oxirigacha kiriting.


KONDENSATSIYALANISHGA QARSHI TRUBA

Muzlatgichning tashqi devorlarida ayrim holatlarda, ayniqsa yangi o'rnatilgan vaqtlarda namlik hosil o'lishi mumkin.

Xavotir olmang.

Bu kondensatsiyalanishga qarshi nasos tufaylidir, u tashiq bo'lma devorlarining "terlashini" oldini olish uchun issiq muzlatgichdan nasos yordamida havoni chiqaradi.

Kondensatsiyalanishga qarshi truba



DIQQAT


Elektr toki urish xavfi

Kuygan lampochkani almashtirish uchun muzlatgich vilkasini rozetkadan uzing yoki uydagi elektr tokini avtomatik zanjir uzgichdan yoki saqlagich qutisidan o'chiring.

IZOH : Boshqaruvni "OFF" [O'CHIQ] holatiga keltirish lampochka zanjirining uzilganligini bildirmaydi.

LAMPOCHKANI ALMASHTIRISH

1. Elektr tarmog'iga ulash shnuri vilkasin rozetkadan uzing.
2. Lampa qopqog'ini oching
3. Chiroqni soat miliga qarshi yo'nalishda aylantiring.
4. Yechishga teskari joylashtiring. Almashtirilayotgan lampochka xuddi asl xususiyatidek bo'lishi kerak.(E14 tipli)



MUHIM OGOHLANTIRISHLAR

UZAYTIRMA KABELDAN FOYDALANMANG

Elektr tokining o'chib qolishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha yuklanishlardan uni va boshqa qurilmalar yoki elektr lampochkalarini himoya qilish uchun ushbu muzlatgichni alohida rozetkaga ulang.

ELEKTR TA'MINOTIGA ULASH VILKASIDAN FOYDALANISH

Muzlatgich xavfli holatlar yuz bergan vaqtda elektr tarmog'idan tezlik bilan uzish mumkin tarzda joylashtirilishi kerak.

ELEKTR TARMOG'IGA ULASH KABELINI ALMASHTIRISH

Agar elektr quvvati kabeli shikastlangan bo'lsa, xatarlarning oldini olish uchun u ishlab ishlab chiqaruvchi, uning xizmat ko'rsatish agenti yoki tegishli malakali shaxs tomonidan almashtirilishi kerak.

YERGA ULASH TO'G'RISIDA


Elektr zanjirida qisqa tutashuvlar bo'lgan vaqtda yerga ulash elektr tokining yerga o'tishi tufayli elektr toki urish xavfini kamaytiradi.

Elektr toki urishi extimolini oldini olish maqsadida ushbu qurilma yerga ulangan bo'lishi kerak.

Yerga ulanmagan rozetkadan foydalanish elektr toki urishiga sabab bo'lishi mumkin. Agar yerga o'lash ko'rsatmalari tushunarli bo'lmasa yoki qurilmaning to'g'ri yerga ulanganligi to'g'risida shubhangiz bo'lsa, malakali elektrik yoki xizmat ko'rsatish xodimiga murojaat qiling.

ELEKTR TARMOG'IGA ULASH KABELINI O'ZGARTIRMANG YOKI UZAYTIRMANG.

Bu elektr toki urishi yoki yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



JUDA HAVFLI O'YINCHOQ

Bo'sh muzlatgich bolalar uchun juda havfli o'yinchoq bo'lishi mumkin. Eski muzlatgichingidan savatchalar, zichlagichlarni, idishlar yoki eshikchasini butunlay olib tashlang yoki uni havfsiz qilish uchun boshqa choralarni ko'ring.

Ushbu qurilma yerga ulanishi kerak.

KECHIKTIRMANG! UNI HOZIR BAJARING!

Muzlatgichda yonuvchan, portovchan materiallar yoki kimyoviy moddalarni saqlamang.

OGOHLANTIRISH

Agar ular nazorat ostida bo'lmasalar yoki ularga xavfsizlik uchun javobgar shaxs tomonidan ushbu mashinadan foydalanish to'g'risida ko'rsatmalar berilmasa, bu qurilmadan jismoniy yoki aqliy qobiliyatlari cheklangan yoki bilimi va tajribasi yetarli bo'lmagan shaxslar (jumladan bolalar) foydalanishlari mumkin emas.

Bolalarning ushbu qurilmani o'ynamasliklariga ishonch hosil qilish uchun nazorat ostida bo'lishlari kerak.

QURILMANI CHIQTITGA CHIQUARISH

Ushbu qurilma tarkibida suyuqlik mavjud (sovutuvchi vosita, moylovchi moylar) va qurilma qayta foydalanish va/yoki qayta ishlanishi mumkin bo'lgan qismlardan tashkil topgan.


Barcha muhim qismlarni chiqindilarni qayta ishlash markaziga lozim va ulardan qayta ishlangandan so'ng qaytadan foydalanish mumkin. Qaytarib olish uchun mahalliy agentga murojaat qiling.

"Muzlatgich elektr va elektron jihozlarda ma'lum xavfli moddalardan foydalanmaslik bo'yicha Texnik Tartib talablariga javob beradi."

XIZMAT KO'RSATISH MARKAIZGA QO'NG'IROQ QILISHDAN AVVAL

KO'PINCHA XIZMAT KO'RSATISH MARKAIZGA QO'NG'IROQ QILISHDAN QOCHISH MUMKIN!
 AGAR MUZLATGICHINGIZ TO'G'RI ISHLAMAYOTGAN BO'LSA, AVVAL USHBU MUMKIN BO'LGAN
 SABABLARNI TEKSHIRING:

MUAMMO	MUMKIN BO'LGAN SABABLAR
MUZLATGICH ISHLAMAYPTI	● Saqlagich quymaganmi yoki zanjir uzgich o'chirilmaganmi? ● Kabel vilkasi rozetkadan uzilmaganmi yoki u bo'shab qolmaganmi?
SOVUTISH KAMERASI YOKI MUZLATISH KAMERASI JUDA ILIQ	● Harorat boshqaruvi to'g'ri holatga o'rnatilmagan. ● Qurilma issiqlik manbai yoki devorga jiuda yaqin o'rnatilgan. ● Iliq havo – eshiklarning tez-tez ochilishi. ● Eshik uzoq vaqt ochiq qoldirilgan. ● Muzlatgichga katta miqdordagi taomlar solingan.
G'ALATI SHOVQINLI TOVUSH(LAR)	● Muzlatgich kuchsiz yoki notekis joyga o'rnatilgan yoki tekislash vintini sozlash talab qilinadi. ● Muzlatgichning orqa tarafiga keraksiz narsa joylashtirilgan.
MUZLATGICHDAN HID KELAYPTI	● Kuchli hidga ega bo'lgan taomlar qadoqlab yoki o'rab qo'yilishi kerak. ● Ichki qismini tozalash kerak.
KABINET YUZASIDA TOMCHILAR HOSIL BO'LAYPTI	● Yuqori namlikka ega bo'lgan sharoitlarda oddiy holat. ● Eshik ochiq qoldirilgan bo'lishi mumkin.



QURILMANI CHIQUITGA CHIQUARISH

1. Ustiga kesishgan chiziq tortilgan chelak belgisi ushbu mahsulotning 2002/96/EC Yevropa Direktivasi bilan qamrab olishini bildiradi.
2. Barcha elektr va elektronika mahsulotlari hukumat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tayinlangan chiqindilarni to'plash tashkilotlari tomonidan boshqa maishiy chiqindilardan alohida tarzda to'planishi kerak.
3. Qurilmani to'g'ri chiqitga chiqarish atrof-muhit va inson salomatligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olishga yordam beradi.
4. Eski qurilmalarni chiqitga chiqarish to'g'risida ko'proq ma'lumotlar olish uchun shahar hokimiyati, mahalliy chiqindilarni to'plash xizmati yoki o'zingiz qurilmangizni sotib olgan do'konigizga murojaat qiling.
5. Yonuvchan izolyatsiyalovchi portlovchi gazlar alohida chiqitga chiqarilishi kerak. Yonuvchan izolyatsiyalovchi portlovchi gazlar uchun kabinet va eshiklarni qayta tiklash zavodiga olib boring.

- Ushbu muzlatgichda muzlatish vositasi sifatida foydalanilgan ftorli issiqlik gazlari to'g'risidagi ma'lumotlar.


Kimyoviy nomi	Gazlarning tarkibi	Jami GIE (kg CO ₂ -eq)
R-134a	100% HFC-134a	1300

YERGA ULASH QURILMASI (IXTIYORIY)

Elektr toki oqishi yuz bergan holda elektr toki urishini oldini olish uchun yerga ulash tavsiya qilinadi.

Yerga ulash simini ulash:

- Yerga ulash simining metall halqasini muzlatgichning orqa tarafidagi yerga ulash vintiga ulang.
- Yerga ulash simining boshqa uchidagi izolyatsiyani ko'chiring. Izolyatsiyasi ko'chirilgan simni metal vint/mixga birlashtiring va devor yoki yer orqali o'tkazing.



Yerga ulash simini quyidagi joylarga ulamang.

- **Gaz trubasi**
U uchqun chiqarishi mumkin va bu yong'in va portlashga olib kelishi mumkin.
- **Telefon simlari va yashin qaytargichlar**
Chaqmoq vaqtida havfli holatlar yuz berishi mumkin.
- **Vodoprovod va vodoprovod krani**
Vodoprovod trubasining o'rtasi plastikdan qilingan hollarga yerga ulash ishlamaydi.
U metall suv trubasiga ulangan hollarda elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

Mahsulotni nam yoki ho'l joylarga o'rnatganda yerga ulash albatta bajarilishi kerak.

- Mas)
- Pol qilinmagan yoki yaxshi pol qilinmagan xona (Poli yaxshi bo'lmagan yoki polsiz xona), beton pollik xona
 - U nam bo'lishi mumkin bo'lgan joylar, masalan, rakovina yaqiniga
 - Suv oqib chiqishi yoki nam joylar, masalan, yerto'la
 - Boshqa nam yoki ho'l joylar

Ayniqsa doimo xo'l bo'ladigan joylar, masalan, restorandagi rakovina yaqiniga o'rnatganda siz qonunlarga ko'ra yerga ulash simidan tashqari avtomatik zanjir uzgich ham o'rnatishingiz shart.

Xarid qilgan do'koningiz yoki elektr kompaniyasi bilan maslahalanishgan keyin yerga ulash qurilmasini o'rnatishingiz kerak (3 turdagi qurilma). Shuni yodda tutingki, qurilma qo'shimcha to'lovlarni talab qilishi mumkin.



RA

Импортер в Российской Федерации:

ООО «ЛГ Электроникс РУС»
143160, Российская Федерация, Московская область,
Рузский район, сельское поселение Дороховское,
86 км Минского шоссе, д.9

UKR

Виробник:

“ЛГ Електронікс Індонезія ПТ”
Джиель Табри №1, Кірааб Легок, 15820
Тангеранг, Індонезія

Імпортер:

ПІІ 'ЛГ Електронікс Україна', Україна, 01004,
м. Київ, вул. Басейна, 4 (літера А),
тел.: +38 (044) 201-43-50,
факс: +38 (044) 201-43-73

Устаткування відповідає вимогам Технічного Регламенту
Обмеження Використання деяких Небезпечних Речовин
в електричному та електронному обладнанні

The model and serial number of the refrigerator
is located on the back or one side of the refrigerator.
Record it below should you ever need service.

MODEL _____
SERIAL _____

LG Electronics Indonesia, PT.

**JI Tabri № 1, Cirarab Legok, 15820
Tangerang, Indonesia**

Printed in Indonesia

8-800-200-7676	Россия
0-800-303-000	Украина
8-8000-805-805	Казахстан
2255	Казахстан (с мобильного GSM)
8-820-0071-1111	Беларусь
8-0200-201	Латвия
8-8000-8081	Литва
8000-9990	Эстония
8-800-120-2222	Узбекистан
800-0071-0005	Кыргызстан

LG Customer Information Center

P/No. : MFL67940010